



XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON AYOLLARI MAVQEINING CHEKLOVLARI VA IMKONIYATLARI

Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha

qo‘mita Bosh mutaxassisi

e-mail: xxmao1993@gmail.com

orcid: 0009-0005-6647-7172

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston xotin-qizlari mavqeining cheklovlari va imkoniyatlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayollarning kundalik hayoti va ijtimoiy ishtiroki asosan shariat me‘yorlari, mahalliy urf-odatlar hamda an‘anaviy oila tuzilmasi bilan belgilanganligi, buning natijasida ta‘lim, jamoat hayoti va erkin harakatlanish imkoniyatlari sezilarli darajada toraygani yoritiladi. Shu bilan birga, ommaviy matbuotda ayollar masalasining jamoatchilik muhokamasiga chiqarilishi, otinoyilar maktablari orqali diniy savodning tarqalishi, shariat doirasidagi ayrim huquqiy kafolatlar (meros, ajrashish, mulk) hamda shaharlarda tibbiy xizmatning shakllanishi ayollar uchun yangi ijtimoiy tajriba maydonlarini yaratgani ko‘rsatib beriladi. Maqola Turkiston ayollari mavqeini “mutlaq huquqsizlik” yoki “tezkor ozodlik” kabi qutbiy yondashuvlar bilan emas, balki cheklovlar va imkoniyatlar bir vaqtda mavjud bo‘lgan murakkab tarixiy jarayon sifatida talqin etadi.

Kalit so‘zlar: Turkiston ayollari, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, ijtimoiy mavqe, shariat va urf-odat, matbuot bahslari, otinoyilar maktabi, erta nikoh, huquqiy kafolatlar, tibbiy xizmat, modernizatsiya.

LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURY: LIMITATIONS AND OPPORTUNITIES OF THE STATUS OF TURKESTAN WOMEN

Khabibullo Khoji Muhammadyusuf Alisher ogli

Chief Specialist, Committee on Religious Affairs

of the Republic of Uzbekistan

E-mail: xxmao1993@gmail.com

ORCID: 0009-0005-6647-7172



Abstract: This article analyzes, on the basis of historical sources, the limitations and opportunities shaping the status of women in Turkestan in the late nineteenth and early twentieth centuries. It shows that women's everyday life and social participation were largely determined by Sharia norms, local customs, and the traditional family structure, which significantly narrowed their access to education, public life, and freedom of movement. At the same time, the article demonstrates that the women's issue was brought into the sphere of public debate through the mass press; that religious literacy spread via otinoyi (female religious teacher) schools; and that certain legal guarantees within the Sharia framework (inheritance, divorce, and property rights), along with the emergence of urban medical services, created new arenas of social experience for women. The study interprets the status of Turkestan women not through polarized views such as "absolute rightlessness" or "rapid emancipation," but as a complex historical process in which constraints and opportunities coexisted simultaneously.

Keywords: Turkestan women; late nineteenth–early twentieth centuries; social status; Sharia and local customs; press debates; otinoyi schools; early marriage; legal guarantees; medical services; modernization.

КОНЕЦ XIX – НАЧАЛО XX ВЕКА: ОГРАНИЧЕНИЯ И ВОЗМОЖНОСТИ СОЦИАЛЬНОГО ПОЛОЖЕНИЯ ЖЕНЩИН ТУРКЕСТАНА

Хабибулло Ходжи Мухаммадюсуф Алишер угли

Главный специалист Комитета
по делам религий Республики Узбекистан

E-mail: xhmao1993@gmail.com

ORCID: 0009-0005-6647-7172

Аннотация: В статье на основе исторических источников анализируются ограничения и возможности, определявшие социальное положение женщин Туркестана в конце XIX – начале XX века. Показано, что повседневная жизнь и



социальное участие женщин во многом регулировались нормами шариата, местными обычаями и традиционной семейной структурой, вследствие чего существенно сужались их возможности в сфере образования, общественной жизни и свободы передвижения. Вместе с тем выявляется, что женский вопрос выносился в поле общественной дискуссии через массовую прессу; религиозная грамотность распространялась посредством школ отинойи (женских учителей); а отдельные правовые гарантии в рамках шариата (наследование, развод, имущественные права), а также формирование городской медицинской помощи создавали для женщин новые пространства социального опыта. В работе положение женщин Туркестана интерпретируется не в рамках полярных оценок вроде «абсолютного бесправия» или «быстрой эмансипации», а как сложный исторический процесс сосуществования ограничений и возможностей.

Ключевые слова: женщины Туркестана; конец XIX – начало XX века; социальное положение; шариат и местные обычаи; дискуссии в прессе; школы отинойи; ранний брак; правовые гарантии; медицинская помощь; модернизация.

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ayollari mavqeining cheklovlari va imkoniyatlari masalasi mintaqaning mustamlaka boshqaruvi sharoitida kechgan ijtimoiy-modernizatsion jarayonlarini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrda Turkiston jamiyatida xotin-qizlarning kundalik hayoti, oiladagi oʻrni va jamoat hayotidagi ishtiroki asosan shariat meʼyorlari hamda mahalliy urf-odatlar bilan belgilangan boʻlib, bu holat ayol mavqeini koʻp jihatdan anʼanaviy doira — roʻzgʻor va qarindoshlik tarmogʻi — bilan cheklab qoʻyar edi. Shu bilan birga, Rossiya imperiyasi maʼmuriy-huquqiy tizimining oʻlka hayotiga kirib kelishi, yangi turdagi matbuot maydonining shakllanishi va shaharlarda zamonaviy taʼlim hamda tibbiyot muassasalarining paydo boʻlishi ayollar masalasini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqdi hamda mavqening ayrim yoʻnalishlarda oʻzgarishiga zamin yaratdi.

Uzoq vaqt hukmron boʻlgan “Turkiston ayoli jamiyatdan uzilgan, mutlaq huquqsiz” mazmunidagi tasavvurlar koʻpincha “Sharq ayoli” haqidagi gʻarbona stereotiplar bilan uygʻunlashib, mahalliy real ijtimoiy munosabatlarni biryoqlama talqin



qilishga olib kelgan. Holbuki, tarixiy manbalar ayollarning ijtimoiy faolligi cheklanganini tasdiqlagan holda, ularni to‘liq “qullik” holatida tasvirlash ilmiy jihatdan yetarli emasligini ko‘rsatadi: ayrim holatlarda ayollar shariat va urf-odat doirasida meros, ajrashish, mulk va sud jarayonlarida ishtirok etish kabi huquqiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan; shaharlarda esa tibbiy xizmat va ma’rifiy muhit bilan aloqa qilish orqali yangi tajribalarga kirishish holatlari kuzatilgan. Demak, mazkur davr ayollari mavqei “faqat cheklov” yoki “tezkor ozodlik” kabi qutbiy yondashuvlar bilan emas, balki cheklovlar va imkoniyatlar bir-biriga tutashgan murakkab ijtimoiy-huquqiy maydon sifatida tahlil etilishi lozim.

Asosiy qism. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston xotin-qizlari mavqeini tahlil qilishda, avvalo, “cheklovlar”ning manbai va ularni mustahkamlab turgan ijtimoiy mexanizmlarini ko‘rsatish lozim. Turkiston jamiyatida ayollarning kundalik hayoti ko‘p hollarda an’anaviy oila modeli doirasida qurilgan bo‘lib, bu modelda mehnat taqsimoti jinsiy belgi asosida qat’iy ajratilgan: tashqi iqtisodiy faoliyat (savdo, bozor aloqalari, hunarmandchilikning “ochiq” segmenti, uzoq safar va davlat-ma’muriy muloqot) asosan erkaklar zimmasida, uy xo‘jaligi va ichki tartib ishlari esa ayollar mas’uliyatida bo‘lgan. Ayolning ijtimoiy maqomi ko‘pincha “uy” va “qarindoshlik tarmog‘i” doirasida shakllanib, uning jamiyatdagi tan olinishi avvalo ona, kelin, xotin kabi rollar orqali belgilangan⁵. Ko‘p avlodli katta oilalarda yoshi ulug‘ onaxonlar muhim masalalarda ta’sir kuchiga ega bo‘lib, bu holat ayolning oiladagi mavqeini mutlaq zaif deb baholashga yo‘l qo‘ymaydi. Biroq bunday “ichki mavqe” ko‘pincha jamoat maydoniga chiqish, ta’lim, sayohat, kasb tanlash yoki ommaviy muhokamalarda faol ishtirok etish imkoniyatlarini avtomatik tarzda bermagan. Shuning uchun ham ayollarning “mavqei” ikki qutb — oilaviy ichki nufuz va jamoat hayotidagi cheklangan ishtirok — orasida murakkab muvozanat sifatida namoyon bo‘ladi.

Cheklovlarning eng ta’sirchan ko‘rinishlaridan biri — nikoh va oila munosabatlaridagi ijtimoiy nazorat tizimi edi. Turkiston muhitida nikoh masalalari asosan shariat qoidalari hamda mahalliy urf-odatlar bilan boshqarilgan; ayniqsa, qizlarni yoshligidan turmushga tayyorlash, ro‘zg‘or yumushlari, tikuvchilik, uy-ichki tartib

⁵ Права среднеазиатской женщины //Туркестанские ведомости. 1875 г. 3 июнь.



ishlariga o'rgatish odatiy hol bo'lib, bu jarayon qiz bola dunyoqarashi va xulq-atvorini muayyan "me'yoriy model" doirasida shakllantirgan⁶. Nikoh yoshiga doir masala esa XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tobora keskinlashgan: bir tomondan, Rossiya imperiyasi musulmon aholisi uchun nikoh yoshini tartibga soluvchi me'yorlar tatbiq etila boshlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Turkiston sharoitida tug'ilganlik sanasining aniq qayd etilmasligi, shariat va urf-odatning ustuvorligi hamda ijtimoiy odatlarning kuchi bu me'yorlarning sust kirib borishiga sabab bo'lgan. Natijada 12–14 yoshdagi qizlarni erta uzatish amaliyoti ham tanqidiy muhokama mavzusiga aylangan. Bu muhokamalar, ayniqsa, matbuot maydonida "tibbiy" va "huquqiy" dalillar bilan asoslangan tanqidlar ko'rinishida chiqib, erta nikohning sog'liq va kelajak avlod sifati bilan bog'liq salbiy oqibatlariga e'tibor qaratgan.

Nikoh masalasidagi ikkinchi muhim cheklov — rozilik va majburlash muammosi edi. Matbuot sahifalarida qizlarni o'z ixtiyoriga zid tarzda katta yoshli erkaklarga uzatish holatlari va bunday majburlashlarning fojeali oqibatlari tilga olingani, bu masalaning jamiyatda qanchalik og'riqli ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu yerda ham faqat "bir yoqlama zulm" tasviriga berilib ketish ilmiy manzarani soddalashtiradi: diniy manbalar va huquqiy talqinlarda balog'atga yetgan qizning roziligi olinishi, majburiy nikohning ma'qullanmasligi kabi tamoyillar ham uchraydi. Demak, amaliyot bilan me'yor (shariatning ayrim tamoyillari) o'rtasida masofa mavjud bo'lib, aynan shu masofa Turkistonda ayol mavqeining cheklovlari qanday "ijtimoiy odat", "mahalliy normalar" va "ma'muriy sustlik" orqali mustahkamlanganini tushuntirishga yordam beradi.

Ayollar mavqeini belgilagan yana bir omil — savod va ta'lim imkoniyatlarining tor doiradaligi edi. Turkistonda ayollarni "mutlaq savodsiz qatlam" sifatida tasvirlash biryoqlama bo'lsa-da, umumiy manzara shuni ko'rsatadiki, ayollar uchun dunyoviy ta'lim imkoniyatlari juda cheklangan edi. Mahalliy ayollarning ma'lum qismi otinoyilar qo'lida savod chiqarib, diniy ta'lim olgan; otinoyilar uy sharoitida qizlarga Qur'on o'qish, hadislar, shariat asoslari, diniy-axloqiy me'yorlar bilan birga, ba'zan mumtoz adabiyot va she'riyat namunalarini ham o'rgatgan. Bu holat ayol ta'limi "butunlay

⁶ Покрывала мусульманских женщин //Туркестанские ведомости. 1889 г. 14 марта.



yo‘q” bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Biroq otinoyi maktablarining soni o‘lka miqyosida kam bo‘lgan, dunyoviy fanlar bo‘yicha ta‘lim olish imkoniyati esa deyarli yo‘qligi sabab ayollar diniy savod bilan cheklanib qolgan. Natijada ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda muntazam va barqaror ishtirok etishiga jiddiy to‘siq yuzaga kelgan: savodsizlik nafaqat axborotga chiqish yo‘llarini toraytirgan, balki huquq, iqtisod va jamoat munosabatlaridagi “til” va “mexanizm”larni ham begonalashtirgan.

Shu bilan birga, aynan XIX asrning so‘nggi choragi va XX asr boshlarida Turkiston ayollari mavqeiga doir “imkoniyatlar” ham shakllana boshlaydi. Bu imkoniyatlar bir zumda “tizimli ozodlik”ka aylanmagan, ammo ayollarning jamiyat hayotiga qisman chiqishi uchun “yoriqlar” hosil qilgan. Bunday yoriqlarning eng muhimlaridan biri — matbuot maydonining kengayishi va ayollar masalasining jamoatchilik muhokamasiga olib chiqilishidir. O‘lkadagi ommaviy nashrlar ayol mavqeini turlicha talqin qilgan: ba‘zan musulmon ayollarining ahvoli tashqi tomondan cheklangandek ko‘rinsa-da, diniy matnlarda ularga oid huquqiy kafolatlar mavjudligi eslatilgan; ba‘zan esa “musulmon ayollarini ozod qilish” g‘oyasi ilgari surilib, ayollarning jamiyat hayotida yetarli qatnashmasligi taraqqiyotdan ortda qolishning sabablaridan biri sifatida baholangan. Aynan shu bahslar maydonida “yangilik tarafdorlari” va “qadimiy qarashlarni himoya qiluvchilar” o‘rtasidagi tafovut keskin ko‘rinadi: konservativ pozitsiya ayolning vazifasini asosan onalik va ro‘zg‘or bilan bog‘lab, erkaklar faoliyati bilan tenglashtirishni “taqlid” sifatida inkor etadi; taraqqiyparvarlar esa ayol savodxonligini milliy taraqqiyotning sharti deb biladi⁷.

Matbuot bahslarining ahamiyati shundaki, u ayollar mavqeini “faqat xonadon ichidagi masala” bo‘lishdan chiqarib, “ijtimoiy muammo” maqomiga ko‘taradi. Bu jarayonda ayollar mavzusi Qur‘on talqinlari, islomiy qadriyatlar, mahalliy an‘ana va zamonaviy taraqqiyot talablari kesishgan nuqtaga kelib qo‘yiladi. Natijada jamiyat ichida ayol mavqeini qayta ko‘rishga doir intellektual harakat kuchayadi. Bu harakatning ko‘rinishlaridan biri — musulmon ayollarining o‘zlari ham muhokamalarga qo‘shila boshlagani, gazetalar orqali murojaatlar yo‘llagani, o‘z hayot sharoitlarini

⁷ Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань: Типография императорского Университета, 1886. – С. 138.



bayon etishga uringani bilan bog‘liq. Xususan, musulmon ayollari orasida teng huquqlilikni talab qilgan ilg‘or fikr egalari mavjud bo‘lgani qayd etiladi; bu holat, ayniqsa, tatar ayollari misolida yaqqol ko‘rinadi. Ularning chaqiriqlarida “ma’rifatli ona” g‘oyasi markazda turadi: jamiyat taraqqiyoti onalarning savodiga bog‘lanadi, ayollarni jaholatda tutish xalq kelajagini zaiflashtirishi uqtiriladi. Bu murojaatlar nafaqat “talab” sifatida, balki ayolning o‘zini jamiyat kelajagi uchun mas’ul subyekt sifatida ko‘ra boshlaganini ko‘rsatadigan muhim indikator hisoblanadi.

Imkoniyatlarning ikkinchi yo‘nalishi — huquqiy-amaliy maydonda ayollarning muayyan darajada ko‘rinish bera boshlaganidir. Shariat va urf-odat doirasida ayollarning meros, ajrashish, mulk kabi huquqlari mavjud bo‘lgani, ayrim holatlarda ayollar sud jarayonlarida da’vogar yoki javobgar sifatida ishtirok eta olgani ta’kidlanadi. Mazkur holatlarni “ommaviy norma” darajasiga ko‘tarish qiyin bo‘lsa-da, ular ayolning mutlaq huquqsizligi haqidagi tasavvurni murakkablashtiradi: ayolning huquqiy subyekt sifatida ko‘rinishi mavjud, ammo bu ko‘rinish tor, odatiy hayotda esa kam uchraydigan va ko‘pincha iqtisodiy, oilaviy vaziyat taqozosi bilan yuzaga chiqadigan shaklga ega bo‘lgan. Masalan, erning moddiy ta’minot bermasligi yoki haqoratli munosabati ajrashish tashabbusini kuchaytirgani, ayrim ishlar tibbiy xulosa bilan mustahkamlangani kabi holatlar ayolning “himoya mexanizmlari” ham butunlay yo‘q bo‘lmaganini bildiradi. Shuningdek, Rossiya ma’muriy-huquqiy tizimi asta-sekin oila va nikoh masalalariga aralasha boshlagani natijasida ayollar qozilik sudidan tashqari davlat idoralariga ham murojaat qila boshlagan holatlar tilga olinadi. Bu yerda muhim jihat shundaki, ma’muriy tizimning kirib kelishi bir tomondan an’anaviy boshqaruv mexanizmlarini siqib chiqarish bilan birga, ikkinchi tomondan ayrim ijtimoiy nizolarni “ichki doira”dan chiqarib, rasmiy instansiyalarga olib chiqish uchun yangi kanal ham yaratadi.

Imkoniyatlarning uchinchi yo‘nalishi — shaharlarda zamonaviy tibbiy xizmatning shakllanishi va ayollarning bu xizmatlar orqali jamoat bilan yangi turdagi muloqotga kirishganidir. XIX asrning 80-yillaridan boshlab shahar muhitida mahalliy aholi, xususan ayollar va bolalar uchun mo‘ljallangan ambulatoriya va shifoxonalar ochilishi ayollar salomatligini muhofaza qilish yo‘lida sezilarli qadam bo‘ldi. Bu



muassasalarda xizmatlarning bepul yoki juda arzon bo'lishi murojaatlar sonini oshirgan, ayrim yillarda bemorlar oqimi juda yuqori bo'lgani qayd etiladi. Biroq tibbiy modernizatsiya ham oson kechmagan: mentalitet va diniy-an'anaviy to'siqlar sabab ayrim oilalar tug'ruq ayollarini shifoxonaga yotqizishga qarshilik qilgan, ayollar rus shifokoriga murojaat qilishdan cho'chigan, yuzini ochishdan bosh tortgan holatlar bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, muassasalar faoliyati ayollar uchun yangi ijtimoiy tajriba maydonini yuzaga keltiradi: ular tibbiy muolaja zarurati sabab boshqa din va millat vakillari bilan muloqotga kirishadi, shahar madaniy hayotidagi o'zgarishlarni kuzatadi, "jamoat xizmatlari" tushunchasi bilan amaliy jihatdan tanishadi. Tibbiyot shu ma'noda ayollarni "uy" doirasidan butunlay chiqarib yuborgan institut bo'lmagan, lekin ayolning jamoat hayotiga ehtiyoj asosida kirib kelishini ta'minlagan "ijtimoiy ko'prik" vazifasini bajargan.

Bunday o'zgarishlar fonida ayollar mavqeidagi cheklovlar va imkoniyatlar bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, bir vaqtning o'zida mavjud bo'ladi. Ayolning ijtimoiy hayotga chiqishi bo'yicha har bir "yangi tajriba" (masalan, safar, sahna, maktab, tibbiy muassasa, matbuot orqali murojaat) jamiyatda darhol qabul qilinmay, ko'pincha bahs va e'tirozlarni keltirib chiqaradi. Toyfa xonimning safariga doir xabarlar atrofidagi munozaralar aynan shuni ko'rsatadi: bir qarashda bu voqea "yangi davr belgisi" sifatida talqin qilinsa, boshqa qarashda u shariat talablariga zid yoki "boshqalarga yo'ldan ozdiruvchi ibrat" sifatida baholanadi. Demak, imkoniyatlar kengaya boshlagan sari, ijtimoiy nazorat ham o'zini qayta tiklashga intiladi; natijada ayol mavqeining o'zgarishi keskin sakrash emas, balki ziddiyatli va bosqichma-bosqich jarayon sifatida kechadi.

Ayollarning ijtimoiy roliga doir o'zgarishlar etnik va xo'jalik turmush tarziga qarab ham farqlangan. Masalan, ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi muhitlarda ayollar xo'jalik ishlarida nisbatan erkinroq harakat qilgan, lekin buning evaziga og'ir mehnat (chorvachilik va dala ishlari) ham yuklangan. Dehqonchilik bilan shug'ullangan oilalarda esa mehnat jarayonida barcha a'zolar qatnashgani sabab ayolning ishlab chiqarishdagi ishtiroki kuchliroq bo'lishi mumkin edi. Erkaklarning uzoq muddat safarda bo'lishi yoki ish izlab ketishi ham ayollarning oiladagi mavqeini kuchaytirib, ularni moddiy ta'minotga bevosita hissa qo'shishga undagan. Bu holatlar ayolning



“cheklangan” mavqei doirasida ham moslashuvchanlik va amaliy mas’uliyat mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shu tariqa, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston xotin-qizlari mavqeini bir yoqlama “mutlaq huquqsizlik” modeli bilan izohlash ilmiy jihatdan yetarli emas. Ha, cheklovlar kuchli edi: an’anaviy gender mehnat taqsimoti, ta’limning torligi, erta va majburiy nikoh amaliyotlari, jamoat hayotiga chiqishning ijtimoiy nazorat ostida bo‘lishi ayolning imkoniyatlarini keskin siqib qo‘ygan. Ammo ayni paytda imkoniyatlar ham ko‘rina boshlaydi: matbuot bahslari ayol masalasini ijtimoiy muammoga aylantiradi; shariat va urf-odat doirasida ayrim huquqiy kafolatlar amaliyotda namoyon bo‘ladi; ayollar murojaat qilish, talab bildirish, safar qilish, ma’rifiy muhitga kirish kabi tajribalar orqali “subyekt” sifatida ko‘rinish beradi; shaharlardagi tibbiy xizmat esa ayolning jamiyat bilan aloqalarini kengaytiruvchi yangi kanal bo‘lib xizmat qiladi. Demak, mazkur davr Turkiston ayollari mavqeining asosiy xususiyati — cheklovlar va imkoniyatlar bir vaqtda yashagan, o‘zaro kurashgan va asta-sekin yangi ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirgan murakkab tarixiy manzaradir.

Xulosa. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston xotin-qizlari mavqei biryoqlama “mutlaq huquqsizlik” yoki “tezkor ozodlik” kabi soddalashtirilgan talqinlar doirasiga sig‘maydigan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Bu davrda ayollarning kundalik hayoti asosan an’anaviy oila tuzilmasi, shariat me’yorlari va mahalliy urf-odatlar bilan tartibga solingan bo‘lib, jamoat hayotidagi ishtiroki, ta’lim va kasbiy faolligi, erkin harakatlanishi ko‘p jihatdan ijtimoiy nazorat mexanizmlari orqali cheklab qo‘yilgan. Ayniqsa, erta va majburiy nikoh amaliyotlari, savod hamda dunyoviy ta’lim imkoniyatlarining torligi, “ayolning vazifasi uy-ro‘zg‘or” degan stereotipning tafakkurda chuqur ildiz otgani ayol mavqeining umumiy manzarasini belgilagan asosiy omillar bo‘ldi.

Shu bilan birga, mazkur davrda ayollar masalasiga nisbatan jamoatchilik munosabatida yangi tendensiyalar ham shakllandi. Ommaviy matbuotning rivojlanishi xotin-qizlar mavqeini keng muhokama doirasiga olib chiqdi, natijada jamiyat ichida taraqqiyparvar va konservativ qarashlar o‘rtasidagi ziddiyatlar ochiq ko‘rinish oldi. Shariat va urf-odat doirasida meros, ajrashish, mulk va ayrim huquqiy himoya



mexanizmlarining mavjudligi, ayrim hollarda ayollarning sud va ma'muriy idoralarga murojaat qilishi ularni mutlaq huquqsiz qatlam sifatida baholash to'g'ri emasligini ko'rsatadi. Shuningdek, otinoyilar maktablari orqali diniy savodning tarqalishi, shaharlarda tibbiy xizmatning shakllanishi va ayollar hamda bolalar uchun ambulatoriya va shifoxonalarning ochilishi ayollar hayotiga yangi tajriba maydonini olib kirib, ularning jamiyat bilan aloqalarini muayyan darajada kengaytirdi.

Adabiyotlar:

7. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари
8. Мусулмон хотин-қизларининг тенг ҳуқуқлик тўғрисидаги хати.
//Туркистон вилоятининг газети. 1913 й. 28 ноябрь.
9. Мусулмон хотин-қизларнинг тенг ҳуқуқлик тўғрисидаги хати.
//Туркистон вилоятининг газети. 1913 й. 1 декабрь.
10. Мусулмон хотин-қизларнинг тенг ҳуқуқлик тўғрисидаги хати.
//Туркистон вилоятининг газети. 1913 й. 5 декабрь.
11. Мусулмон хотунларининг юзларини бекитишлари хусусида.
//Туркистон вилоятининг газети. 1909 й. 29 ноябрь.
12. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань: Типография императорского Университета, 1886. – С. 138.
13. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань: Типография императорского Университета, 1886. – С. 159.
14. Покрывала мусульманских женщин //Туркестанские ведомости. 1889 г. 14 марта.
15. Пославская А., Мандельштам. Обзор десятилетней (1883-1894) деятельности амбулаторной лечебницы для женщин и детей в Ташкенте. - Т., 1894. – С. 76.
16. Права среднеазиатской женщины //Туркестанские ведомости. 1875 г. 3 июнь.



17. Ранние браки у туземцев // Туркестанские ведомости. 1899. № 8.
18. Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. Т.: Маънавият. 98-б.